

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR**  
**BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**AXMEDOVA NAZOKAT ZIKIRILLO QIZI**

**KORXONALARDA MEDIAREKLAMA FAOLIYATI**  
**SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Axmedova Nazokat Zikirillo qizi**

Korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorligini oshirirish..... 3

**Ахмедова Назокат Зикирилло қизи**

Повышение эффективности медиарекламной деятельности на  
предприятиях..... 25

**Akhmedova Nazokat Zikirillo kizi**

Increasing the effectiveness of media advertising activities at enterprises..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications..... 52

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR**  
**BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**AXMEDOVA NAZOKAT ZIKIRILLO QIZI**

**KORXONALARDA MEDIAREKLAMA FAOLIYATI**  
**SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4539 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muminova Nargiza Maxsudjonovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ikramov Murat Akramovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi**  
**Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-74; faks:(99871)239-41-21; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**G.Q. Abduraxmonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.Dj. Djuraboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**Sh.A. Allayarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida media va mediareklama sohasi nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki korxonalar faoliyatida muhim iqtisodiy resursga aylangan. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida mediareklama korxonalarining bozor muhitidagi raqobatbardoshligini ta'minlash, mahsulot va xizmatlarni iste'molchiga samarali yetkazishning eng muhim vositalaridan biriga aylangan. Raqamli marketing, kontekstli mediareklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali nishonli auditoriyaga murojaat qilish imkoniyatlari mediareklama faoliyatining strategik ahamiyatini oshirmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda global mediareklama bozori hajmi 865 milliard AQSH dollarini tashkil etib, uning 65% dan ortig'i digital media orqali amalga oshirilgan<sup>1</sup>. Ayniqsa, internet-mediareklama (search, display, social media) segmentlari eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida ajralib turmoqda. Bu ko'rsatkich mediareklamanning iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, va mobil ilovalar orqali mediareklama strategiyalari asosiy yo'nalish sifatida qaralayotgani tadqiqotning dolzarbligini belgilab bermoqda.

Jahon tajribasida mediareklama bozori misli ko'rilmagan tezlikda o'sib bormoqda. So'nggi yillarda reklama byudjetlarining katta qismi an'anaviy vositalardan raqamli platformalarga yo'naltirilmogda. 2024 yil yakunlari bo'yicha jahon mediareklama bozori hajmi 1,04 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan qariyb 9,5 foiz o'sishni anglatadi. Ushbu jarayon global mediareklama industriyasi raqamli transformatsiya bosqichida ekanini ko'rsatadi. Soha tahlillariga ko'ra, mediareklama xarajatlarining 60–65 foizi raqamli platformalarga (search, display, social media, mobile) yo'naltirilgan bo'lib, bu segment eng tez rivojlanayotgan yo'nalish sifatida ajralib turmoqda. 2024 yilda jahon bo'yicha raqamli reklama sarflari 740,3 milliard AQSH dollariga yetdi, ya'ni o'tgan yilgi ko'rsatkichdan 8,9 foiz ko'pdir. Ulardan eng yuqori sur'atda rivojlanayotgan segmentlardan biri ijtimoiy tarmoqlar reklamalari bo'lib, ushbu yo'nalish bo'yicha xarajatlar yil davomida 15 foizga oshgan<sup>2</sup>. Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida mediareklama nafaqat mahsulot va xizmatlarni iste'molchiga yetkazish vositasi, balki korxonalar raqobatbardoshligini belgilovchi muhim strategik omil sifatida shakllanmogda. Shuningdek, raqamli video reklama va mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotgan reklama kompaniyalari ham sezilarli o'sish tendensiyasiga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etmogda.

O'zbekiston sharoitida ham mediareklama faoliyati so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormogda. Internet infratuzilmasining kengaytirilishi, mobil texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida korxonalar o'z mediareklamalarini an'anaviy vositalardan raqamli kanallarga yo'naltirishmogda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda

<sup>1</sup> [https://www.visionresearchreports.com/digital-advertising-market/41044?utm\\_source=.com](https://www.visionresearchreports.com/digital-advertising-market/41044?utm_source=.com)

Digital Advertising Market (By Platform: Computer, Smartphone; By Format: Text, Image, Video; By Type; By End-user) - Global Industry Analysis, Size, Share, Growth, Trends, Revenue, Regional Outlook and Forecast 2024

<sup>2</sup> <https://www.emarketer.com/content/global-ad-revenues-hit--1-trillion-milestone-2024--says-groupm-forecast>.

mediareklama xizmatlari hajmi 1,1 trillion soʻmdan oshgan boʻlib, shundan katta qismi digital mediareklama orqali amalga oshirilgan. Bu esa, oʻz navbatida, korxonalarda mediareklama strategiyalarining samaradorligini tahlil qilish, ularni iqtisodiy jihatdan takomillashtirish masalasini dolzarb etib qoʻymoqda. Bundan tashqari, mediareklama iqtisodiy rivojlanishga turtki beruvchi muhim omillardan biri sifatida koʻrilmogʻda, bu esa uni chuqur ilmiy tahlil qilish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi va ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishini taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-son “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2018 yil 29 noyabrda PF-5587-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2018 yil 20 dekabrda PQ-4069-son “Eksportga koʻmaklashish va uni ragʻbatlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019 yil 12 fevralda PQ-4186-son “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019 yil 24 mayda PQ-4337-son “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sugʻurta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019 yil 16 sentabrda PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, 2020 yil 5 oktyabrda PF-6079-son “«Raqamli Oʻzbekiston–2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son «2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi, Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 9 sentabrda “Reklama toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 yanvarda PF-6-son «Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi va boshqa meʼyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy axloqiy va madaniy-maʼrifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Ushbu mavzuni tadqiq etish borasida xorijiy va Vatanimiz taniqli olim hamda mutaxassislarining marketingning nazariy va metodologik asoslari, shuningdek, klassik, xalqaro va mintaqaviy marketing muammolariga bagʻishlangan ilmiy asarlari mavjud. Marketing mexanizmlarini tashkil etishga oid bir qator nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan P.Dikson, G.Brebax, F.Kotler, K.L.Keller, J.J.Lamben, J.Landveri, J.Levi, D.Lindon, G.E.Belch, M.A.Belch, M.X.Meskon, J.Lee, J.Wang, A.Manela, D.K.Barth, D.T.Chen, T.Yalcin, M.Albert<sup>3</sup> kabilarning, rossiyalik iqtisodchilardan

---

<sup>3</sup> Диксон П. Управление маркетингом. –М.: Бином, 2007. -278 бет.; Бребах Г. Прицельный маркетинг. Новые

esa, L.Bagiev, N.Moiseeva, P.Zavyalov, V.Eremin, E.Knishova, N.Komeneva, V.Markova, T.Maslova, S.Bojuk, L.Kovalik, V.Morozov, R.Nozdryova, G.Krilova, M.Sokolova, E.Peshkova, B.Solovev, O.Tretyak, O.Fedorenko, V. A.Kolesov, A.V.Sokolov, V.M.Klyukanov, I.I.Rakitov, Y.V.Lysenko<sup>4</sup>, kabilarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning ayrim jihatlari va yechimlari respublikamiz iqtisodchi olimlari A.A.Azlarova, A.B.Bobojonov, N.B.Yaxyoxonov, Sh.A.Tursunov, U.U.Sharifxodjayev, M.Q.Abdullayev, L.S.Azimova, B.R.Vafojev<sup>5</sup> kabilarning ilmiy ishlanmalarida o‘z aksini topgan.

Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida mediareklama faoliyatining nazariy, tashkiliy, huquqiy jihatlari, umumiy muammolari ko‘rib chiqilgan bo‘lsada, lekin O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan tovar va xizmatlar mediareklama faoliyatini tashkil qilish zarur deb hisoblaymiz. Mazkur muammoning hozirgi paytdagi ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati va uning iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat berib, uning bajarilishini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti

---

правила привлечения и удержания клиентов/ инглиз тилидан тарж. – М.: Эксмо, 2006. – 304 бет; Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing management: 15-ed.–: «Pearson Prentice Hall», 2015.; 581,610,631,653-бетlar.; Jean-Jacques Lambin, Chantal Moerloose. Marketing stratégique et opérationnel: Du marketing à l'orientation-marché. Dunod, 2012. –550-580 бетlar.; George E. Belch, Michael A. Belch. Advertising and Promotion: An Integrated Marketing Communications Perspective 12-ed., McGraw-Hill Education. 2020.; Landveri J., Levi J., Lindon D. THÉORIE ET PRATIQUE DU MARKETING / Frans tilidan tarj.: B 2 t. - MTFER, 2006. – 664s.; Yanlan Wu. New Media Advertising under the Features of the B2B Market Environment - A Comparative Study.- Proceedings of the 3rd International Conference on Financial Technology and Business Analysis., Shun Tak Fraternal Association Seaward Woo College, 22 Perth

<sup>4</sup> Багиев Л., Моисеева Н.К. Международный маркетинг. Учебник.-СПб: 2001. – 312 с.; Завялов П.С. Маркетинг в схемах, рисунках, таблицах: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 496 с.; Еремин В.Н. Маркетинг: Основы и маркетинг информации. - М.: КНОРУС, 2006. – 656 с.; Книшова Й.Н. Маркетинг: –М.: ФОРУМ: ИНФРА –М, 2006, -282 с.; Коменева Н.Г. и др. Маркетинговое исследование. – М.: ВЗСЭИ, 2006.–439с.; Маркова В.Д. Маркетинг услуг. – М.: Финанси и статистика, 2007.–с 312.; Маслова Т.Д., Божук С.Г., Ковалик Л.Н. Маркетинг. – СПб: 2007. –с. 400.; Морозов В.Ю. Основы маркетинга: Учебное пособие. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Изд. «Дашков и К», 2006. – 148 с.; Ноздрёва Р.Б., Крылова Г.Д., Соколова М.И. Маркетинг: учеб. пособие. –М.: ТК Велби, Изд.во Проект, 2005. –232 с.; Пешкова Е.П. Маркетинговый анализ в деятельности фирмы. – М.: Ос-89, 2007.-80 с.; Соловев Б.А. Маркетинг: Учебник –М.: ИНФРА –М, 2006. –383 с.; Третьак О.А. Маркетинг: новые ориентиры модели управления: Учебник. –М.: ИНФРА, 2005. - 403 с. Колесов, В. А. (2002). Медиареклама: Теория и практика. Москва: Юрайт, 48-50-бетлар.; Соколов, А. В. (2003). Медиареклама и маркетинг: Теория и практика. Москва: Дело, 77-80-бетлар.; Ключанов, В. М. (2012). Психология рекламы. Москва: Аспект Пресс, 112-115-бетлар.; Ракитов, И. И. (2015). Новые тенденции в области рекламы. Москва: Гуманитарная академия, 90-93-бетлар.; Лисенко, Е. В. (2008). Медиареклама и коммуникации: Теория и практика. Москва: Изд-во «Юнити-Дана», 150-155-бетлар.

<sup>5</sup>Azlarova A.A. “Tovarlarni mediareklamasini tashkil qilish va samaradorligi (O‘zbekiston korxonalarini misolida)” Dissertatsiya. 2004 yil.; Tursunov Sh.A. “Telekommunikatsiya sohasida investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”. Dissertatsiya. 2017 yil.; Vafojev B.R. “Korxonalarda marketing samaradorligini oshirishda axborot tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish yullari” Dissertatsiya. 2012 yil.; Bobojonov A.B. “Axborot mahsuloti va xizmatlari marketing strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish” Dissertatsiya. 2023 yil.; Yaxyoxonov N.B. “Korxonalarda raqamli marketingdan foydalanishni takomillashtirish (xizmat ko‘rsatish korxonalarini misolida)” Dissertatsiya. 2023 yil.; Abdullayev M.Q. “Korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi” Dissertatsiya. 2019 yil.; Sharifxodjayev U.U. “O‘zbekiston respublikasi ommaviy axborot vositalari brend boshqaruvi uslubiy yondashuvini takomillashtirish” Dissertatsiya. 2015 yil.; Azimova L.S. Mediareklama faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma-T.: Bookmany print, 2022- 56-b.;

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Dissertatsiyaning maqsadidan kelib chiqib, unda quyidagi vazifalar belgilangan:

mediareklamanning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

mediareklama faoliyatining mazmuni, mohiyati va turlarini ochib berish;

mediareklamanning onlayn biznesdagi o'rnini o'rganish;

korxonalarda mediareklamadan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlilini o'rganish;

O'zbekistonda mediareklama faoliyati holati tahlilini o'rganish;

korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

korxonada mediareklamani rivojlantirishda marketpleyslardan foydalanishni takomillashtirish;

onlayn platformalarda korxonada mediareklama samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish;

to'qimachilik korxonalarida mediareklama ko'rsatkichlarini ekonometrik tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar marketing faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti sifatida** korxonalarining mediareklama faoliyati samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy - iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatuv, so'rovnomalar, tizimli va statistik tahlil, grafik talqin, samaradorlikni baholashning integral ko'rsatkichi, ekspert bahosi kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mediareklama" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'molchilarning xulq-atvorini shakllantirish, talabni rag'batlantirish va bozor ulushini kengaytirish orqali iqtisodiy qiymat yaratishni kuchaytirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

xalqaro "marketpleys"lardan foydalanish asosida milliy marketpleys dasturini ishlab chiqish orqali mahsulotlarning eksport hajmini ( $E = 25-30\%$ ), milliy brendlar tanilishi darajasini ( $MB = 40\%$ ) va raqamli savdo platformalari orqali tashqi savdo aylanmasini ( $TSA = 18\%$ ) oshirish imkoni asoslangan;

to'qimachilik sanoati korxonalarining mediareklama samaradorligini hisoblash ko'rsatkichlari yangi integral oraliqlar natijalarini raqamli marketing metrikasi hisobiga "past" (1 -2), "qoniqarli" (2,1 - 3), "o'rta" (3,1 - 4), "yuqori" (4,1 - 5) chegara diapazonlari doirasida yondashuvga ko'ra takomillashtirilgan;

korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida "Nil-Granit" MChJning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:  
mediareklamaning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganildi;  
mediareklama faoliyatining mazmuni, mohiyati va turlarini ochib berildi;  
mediareklamaning onlayn biznesdagi o‘rni o‘rganildi;  
korxonalarda mediareklamadan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlilini o‘rganildi;

O‘zbekistonda mediareklama faoliyati holati tahlil qilindi;  
korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilindi;

korxonada mediareklamani rivojlantirishda marketpleyslardan foydalanishni takomillashtirildi;

onlayn platformalarda korxonada mediareklama samaradorligini baholash usullarini takomillashtirildi;

to‘qimachilik korxonalarida mediareklama ko‘rsatkichlarini ekonometrik tadqiq qilindi.

**Olingan natijalarning ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning to‘qimachilik tarmog‘i korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, ekspert baholash natijalariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlariga, shuningdek, boshqa amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot davomida erishilgan ilmiy natijalar milliy yengil sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga bag‘ishlangan to‘qimachilik korxonalarida mahsulotlari bozorlarida mediareklamadan samarali foydalanishni asoslash; xalqaro marketing strategiyalaridan samarali foydalangan holda xorijiy, mahalliy va iste’molchilarning talabini qondirishga motivatsiyalash orqali ilmiy-amaliy uslublar asosida tadqiqotlarni amalga oshirish va foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar respublikada yengil sanoat tarmog‘i tarkibidagi to‘qimachilik korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatida, ushbu soha xodimlarini malaka oshirish tizimida, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi o‘quv jarayonini tashkil etish hamda takomillashtirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** To‘qimachilik sanoati korxonalarida mediareklama faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “mediareklama” tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste’molchilarning xulq-atvorini shakllantirish, talabni rag‘batlantirish va bozor ulushini kengaytirish orqali iqtisodiy qiymat yaratishni kuchaytirish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan “Merchandayzing” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14 apreldagi 136-sonli buyrug‘i). Mazkur

tushunchaning yangi mazmunda kiritilishi oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda bo'lg'usi mutaxassislarining mediareklama borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkonini yaratgan;

xalqaro "marketpleys"lardan foydalanish asosida milliy marketpleys dasturini ishlab chiqish orqali mahsulotlarning eksport hajmini ( $E = 25-30\%$ ), milliy brendlar tanilishi darajasini ( $MB = 40\%$ ) va raqamli savdo platformalari orqali tashqi savdo aylanmasini ( $TSA = 18\%$ ) oshirish taklifi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025 yil 24 iyundagi 03/25-1478-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tarmoq korxonalari xodimlariga marketpleyslar bilan ishlashni o'rgatish, ularning dastlabki mahsulotlarini marketpleyslarda joylashtirishda ko'maklashish, mahalliy brendlarni yaratish va ilgari surish imkoni yaratilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalari mediareklama samaradorligini hisoblash ko'rsatkichlari yangi integral oraliqlar natijalarini raqamli marketing metrikasi hisobiga "past" (1-2), "qoniqarli" (2,1-3), "o'rta" (3,1-4), "yuqori" (4,1-5) chegara diapazonlari doirasida yondashuvga ko'ra takomillashtirish taklifi «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025 yil 24 iyundagi 03/25-1478-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Nil-Granit" korxonasi sotuv hajmi 21%ga oshishiga olib kelgan;

korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida "Nil-Granit" MChJning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan korxonaning istiqboldagi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025 yil 24 iyundagi 03/25-1478-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 4 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda

tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Korxonalarda mediareklama faoliyatining ilmiy nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida mediareklamanning nazariy-uslubiy asoslari, mediareklama faoliyatining mazmuni, mohiyati va turlari, korxonalarda mediareklamadan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili natijalariga asoslanib, ularni O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish kabi masalalar o‘rganilgan.

Mediareklama tushunchasiga olimlar turli nuqtai nazarlardan ta’riflar berib, uning funksiyalarini, samaradorligini va jamiyatdagi rolini o‘rganishga intilganlar.

**1-jadval**

**«Mediareklama» atamasining talqinlari<sup>6</sup>**

<b>Mualliflar</b>	<b>Ta’riflar</b>
Filip Kotler va Kevin Keller	mediareklamanning asosiy vazifasi mahsulot yoki xizmat haqida ma’lumot yetkazish, iste’molchini xabardor qilish va ularni xarid qilishga rag‘batlantirish
Judie Lannon va Peter Cooper	mediareklama xabari iste’molchining psixologik holatini, xohishlarini va talablarini aniqlash orqali, brendga nisbatan kuchli munosabat yaratadi
George Belch va Michael Belch	mediareklama nafaqat to‘g‘ri xabarni yetkazish, balki auditoriya bilan hissiy aloqani o‘rnatishdir
Herbert Marshall McLuhan	mediareklama faqat mazmun bilan emas, balki media vositasining o‘zi orqali ta’sir ko‘rsatish xususiyatidir
Vladimir Kolesov	mediareklama xabari orqali, faqat mahsulot haqida ma’lumot berish emas, balki iste’molchining ongida muayyan tasavvur yaratish va ularni o‘z brendiga qiziqtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi
Andrey Sokolov	mediareklama auditoriya bilan o‘zaro aloqani yaratish, iste’molchilarni maqsadli xabarlariga qaratish va o‘zaro aloqalar orqali brendni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lishi lozim
Muallif ta’rifi	mediareklama - iste’molchilarning xulq-atvorini shakllantirish, talabni rag‘batlantirish va bozor ulushini kengaytirish orqali iqtisodiy qiymat yaratishni kuchaytirishdir.

Bizning fikrimizcha, mediareklamaga berilgan bu ta’rifning izohi quyidagicha:

1. Mediareklama ishlab chiqarish mavjud bo‘lgan sharoitda yuzaga chiqadi.
2. Mediareklama orqali ishlab chiqarilgan tovarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar iste’mol bozoriga kirib keladi.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

3. Mediareklama orqali tovar va xizmatlar iste'molchilarga tezda yetkazilib, ular tez xarid qilinadi.

Tovarlar harakatida mediareklama asosiy o'rinni egallab, bozor faoliyatining ko'p qirrali ko'rinishi shaklida ba'zan mustaqil yo'nalishga ajratiladi. Marketing va mediareklama bir jarayonning ikki tomonini tashkil etib, mediareklama marketing tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Mutaxassislar fikricha, mediareklama kommunikatsiya shakli deb qaraladi. U tovarlarning sifati va xizmat ko'rsatishni, shuningdek, g'oyani iste'molchining talab va ehtiyojiga muvofiq ravishda tashkil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, mediareklamaga tovar ishlab chiqaruvchining o'z tovari bilan bozorga kirayotganligi to'grisidagi axboroti deb qarash lozim.

Bunda tovar iste'molchining ehtiyojini ma'lum darajada qondirayotganligi haqida so'z bormoqda. Ishlab chiqaruvchi mahsulotni bozorda sotishdan, xaridor esa o'z ehtiyojini qondirishdan manfaatdor bo'ladi.

Marketing 6.0 yondashuvi ham shuni ko'rsatadiki, bugungi bozorda mijozlarga faqat mahsulot yoki xizmatni taklif qilishning o'zi yetarli emas, endilikda xaridorlar: o'zlariga moslashtirilgan, texnologik imkoniyatlardan foydalangan, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni hisobga olgan brendlar bilan muloqot qilishni afzal ko'rishadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati "Strategiya-2030" doirasida mediareklamaga qaratilgan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Prezidentimizning PF-60 va PF-6079-son farmonlarida belgilangan eksport va raqamlashtirish vazifalari, mediareklamani Marketing 6.0, sun'iy intellekt va 5M modeli asosida qayta shakllantirish zaruriyatiga duch kelmoqda.

5M modeli bu jarayonda muhim nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu model mediareklama faoliyatining beshta asosiy yo'nalishini belgilaydi: Mission (maqsad), Money (budjet), Message (xabar), Media (vosita) va Measurement (natijani baholash). To'qimachilik sohasida ushbu model har bir bosqichni to'qimachilik sanoatining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.


5M modeli O'zbekiston to'qimachilik sanoatida mediareklama faoliyatining har bir bosqichini tizimli ravishda tahlil qilishga, strategiyani aniq maqsadlarga yo'naltirishga va raqamli marketing samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning "O'zbekistonda mediareklama faoliyati samaradorligi tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida** O'zbekistonda mediareklama faoliyati holati tahlili, korxonalarda mediareklama faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili, mediareklamanning onlayn biznesdagi ahamiyatini tahlil qilish kabi masalalar o'rganilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida ulkan tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, mamlakatga xorijiy investorlar kirib kelmoqda, sog'lom raqobat asta-sekin o'sib borib, iqtisodiyotning davlat ishtiroki kamaymoqda. Bu ko'rsatkichlarning barchasi O'zbekiston media bozoriga ta'sir ko'rsatmoqda, Ledokol Group O'zbekistondagi mediareklama xoldingi bergan baholarga ko'ra, 2023 yilda 35% ga o'sgan va 2024 yilda deyarli 30% ga o'sadi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2024 yilning yanvar-fevral oylarida mediareklama va bozor konyunkturasini o'rganish sohasidagi xizmatlar hajmi 436,7 mlrd so'mni tashkil etgan. 2024 yilning 1-fevral holatiga mediareklama faoliyati va bozor konyunkturasini o'rganish sohasida 1579 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Hududlar kesimida mediareklama faoliyati va bozor konyunkturasini o'rganish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

Insonlarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatida internetning ahamiyati tobora ortib borayotganligi hech kimga sir emas. We Are Social kreativ agentligi va SMM uchun Hootsuite servisi 2024 yil uchun raqamli soha holati bo'yicha yillik global tadqiqotni e'lon qildi .



**1-rasm. Hududlar kesimida mediareklama faoliyati va bozor konyunkturasini o'rganish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (2024 yil fevral-mart holatiga ko'ra)<sup>7</sup>**

Uning ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi 7,91 milliard kishini tashkil qiladi. Ularning 67,1% dan ortig'i mobil telefonlardan foydalanadi. O'tgan yil davomida bu ko'rsatkich 1,8% ga oshdi va abonentlarning umumiy soni 5,31 yil boshiga kelib 2022 milliardga yetdi, deyiladi hisobotda. Dunyo aholisining 62,5% internetdan foydalanadi-2024 yilda foydalanuvchilar soni 192 millionga (4%) oshdi va 4,95 milliard kishini tashkil yetdi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 10% dan oshdi va 4,62 milliardni tashkil etdi, bu o'z navbatida dunyo aholisining 58,4 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda Instagram ijtimoiy tarmog'i Facebook

<sup>7</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari asosida <https://t.me/uztsuz>

tarmog'i bilan kuchli raqobatga kirishgan, 2024 yilda internet foydalanuvchilarining 14,5 foizi Instagramni o'zlarining sevimli ijtimoiy tarmog'i sifatida baholashgan, mazkur reytingda Facebook ikkinchi o'rinni (14,8 %) va birini o'rinni WhatsApp (15,7%) bilan band qilgan. WeChat mazkur reytingda 4 -o'rinni egallagan. Tik Tok umumiy ovozlarning atigi 4,3 foizini to'pladi. Biroq, so'nggi uch oy ichida uni sevimli ijtimoiy platforma deb ataganlar soni 71 foizga oshdi<sup>8</sup>.

Hozirda O'zbekistonda ham yil sayin internet, xususan ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchilar soni tobora oshib bormoqda. Taqqoslash uchun, 2023 yil oxirida mamlakatda 27,2 million internet foydalanuvchisi va 25,3 million uyali aloqa abonentlari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 31 million kishidan oshiqni tashkil qiladi, bu o'tgan 2023 yilga nisbatan +13,97% ga ko'p demakdir. Mobil qurilmalardan foydalanuvchilar soni salkam 30 million nafarni tashkil qiladi.

O'zbekiston media bozori ancha jadal rivojlanayotganiga qaramay, u hali ham mamlakat iqtisodiyotida media sektori katta resurslarni to'playdigan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha kamtarona o'rin tutadi.

## 2-jadval

### O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish faolligi darajasi, foiz hisobida (2024 yil holatiga ko'ra)<sup>9</sup>


Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish faolligini 1 dan 5 gacha baholash	1-Umuman foydalanmayman	2-juda kam foydalana-man	3-ba'zan foydalana-man	4-foydalanish yoqadi	5-faol foydalana-nuvchi
Instagram	37,0	11,98	11,98	22,4	11,46
Facebook	23,44	22,40	15,62	16,77	18,75
Telegram	3,65	3,65	5,73	16,67	67,19
В контакте	57,29	17,71	12,5	5,21	3,12
Одноклассники	51,56	13,54	13,02	6,25	11,98
Youtube	13,54	13,54	24,8	20,31	25,00
Linkedin	69,27	13,54	7,29	5,21	0,52
Twitter	80,21	7,81	4,69	2,08	1,04
Snapchat	80,73	7,81	2,60	2,60	1,56

Mamlakatda mediareklama bozori har yili 20-25% ga o'sib bormoqda. O'tgan yili uning hajmi 709,2 milliard so'mga yetdi (66,9 yil o'rtacha yillik stavka bo'yicha 2021 million dollar) — bu uch yil avvalgidan 2 baravar ko'pdir.

2024 yilda bozorning umumiy tarkibida raqamli mediareklamaning ulushi 18% ni tashkil etdi, bu mos ravishda 2023 yilda 16%, 2022 yilda - 15%ga teng bo'lgan. Qiymat jihatidan raqamli mediareklama hajmi o'tgan yili 32 foizga yoki 82,2 mlrd so'mdan 108,2 milliard so'mgacha o'sdi (2-rasm).


<sup>8</sup> Digital 2024 Global Overview Report, <https://www.sostav.ru/publication/we-are-social-i-hootsuite-52472.html>

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi <https://review.uz/post/uzbekistan-v-socialnx-setyax-manbasi-asosida>



**2-rasm. O‘zbekiston umumiy mediareklama bozori hajmida raqamli reklamaning ulushi, mlrd.so‘m<sup>10</sup>**

Ijtimoiy tarmoqlarda marketing - juda samarali qurol bo‘lib, uning yordamida, ijtimoiy tarmoqlardan, bloglardan, kundaliklardan va forumlardan saytga foydalanuvchilarni jalb etish mumkin.



**3-rasm. O‘zbekiston ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni, ming kishi<sup>11</sup>**

<sup>10</sup> <https://review.uz/post/uzbekistan-v-socialnx-setyah>

<sup>11</sup> Журнал «Экономическое обозрение» №7 (259) 2024. Д.К. Нарзуллаева “Узбекистан в социальных сетях”, Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова.

O‘zbekiston media bozori ancha jadal rivojlanayotganiga qaramay, u hali ham mamlakat iqtisodiyotida media sektori katta resurslarni to‘playdigan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha kamtarona o‘rin tutadi.

Raqamli marketing va mediareklama sohalarining izchil rivojlanib borishi natijasida korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan mediareklama faoliyatining iqtisodiy va kommunikativ samaradorligini aniqlash hamda ularni tizimli baholash zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mediareklama faoliyati samaradorligini o‘lchashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar brendning bozorda qanday qabul qilinishini, iste‘molchilarga ta‘sirini va xarid qilishga undash darajasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mediareklama faoliyatining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, ular orqali mediareklama faoliyatining natijadorligi va muvaffaqiyat darajasi aniqlanadi. Sanoat korxonalari mediareklama faoliyati, marketingning juda muhim bir qismini tashkil etadi. Mediareklama, marketingning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi va korxonalar uchun mahsulotlarini, xizmatlarini va kompaniyalarini mijozlarga taqdim etishning jozibadorligini o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **“Yengil sanoat korxonalarida mediareklama faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida korxonada media reklamani rivojlantirishda marketpleyslardan foydalanishni takomillashtirish, onlayn platformalarda korxonada mediareklama samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, yengil sanoat korxonalarida media reklama ko‘rsatkichlarini ekonometrik tadqiq qilish kabi masalalar o‘rganilgan.

Raqamli transformatsiya jarayoni bugungi kundagi eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi va mavzu dolzarbligi nuqtai nazaridan xalqaro va mahalliy platformalarni o‘rganish muhim sanaladi. Global bozor sharoitida to‘qimachilik mahsulotlarini raqamli platformalar orqali sotish korxonalarining eksport salohiyatini kengaytirishda muhim vosita bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, “Made in Uzbekistan” brendi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun xalqaro B2B (business-to-business) marketplace tizimlarida ishtirok etish orqali nafaqat sotuv ko‘rsatkichlarini oshirish, balki milliy mahsulotlarning global identifikatsiyasini mustahkamlash imkoniyati yuzaga chiqadi. Dissertatsiya ishida ana shunday platformalarning to‘rt nafari: IndiaMART, Fibre2Fashion, Global Textile Source va TextileFinds tahlil qilingan va ushbu platformalar “Made in Uzbekistan” konsepsiyasi dasturini amalga oshirishdagi zarurati tahlil qilingan.

Global Textile Source platformasi “Made in Uzbekistan” brendini xalqaro bozorga olib chiqishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bu platforma O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatbardosh ustunliklarini xalqaro B2B segmentida to‘liq aks ettira oladi. Uning asosiy auditoriyasi — AQSh, Yevropa va Britaniya bozorlaridagi yirik kompaniyalar bo‘lib, ular orasida yillik aylanmasi 10 million dollardan ortiq bo‘lgan korxonalar 85 foizni tashkil etadi. Bu holat O‘zbekistonning ipak va organik paxta kabi yuqori sifatli mahsulotlarini yuqori narxlarda sotish imkonini beradi. Platformaning “Supplier Verification” tizimi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorda ishonch qozonadi. Bu tizim fabrikalarda mustaqil auditlar o‘tkazadi,

### 3-jadval

**Xalqaro va mahalliy platformalar qiyosiy tahlili<sup>12</sup>**

Platformalar	Bozordagi pozitsiyasi		Platformaning yutuqlari	Platformaning kamchiliklari	Mediareklama bilan boyitilganlik darajasi	Foydalanuvchining platformadan foydalanish tajribasi	
	Segmenti	Maqsadli auditoriya				O'rtacha foydalanish vaqti (8-14daqiq)	PQFD*
<b>Textile Finds</b>	B2B savdo platforma	O'zbekiston, MDH va xalqaro bozorlarda to'qimachilik bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar va korxonalar uchun mo'ljallangan	To'qimachilikka ixtisoslashgan lokal platforma bo'lib, regiondagi B2B aloqalarni osonlashtiradi.	Foydalanuvchi interfeysi zamonaviy emas, mobil moslashuvchanlik mavjud emas. Professional vizual kontent yetishmaydi, videomediareklama mavjud emas.	<i>Past</i> – rasm sifatлари aralash, video va 3D mavjud emas.	8 daqiqa	32%
<b>India Mart</b>	B2B savdo platforma Qisman B2C	Hindiston va xalqaro bozorlardagi kompaniyalar, ulgurji xaridorlar va ishlab chiqaruvchilar	Filterlar va kategoriya bo'yicha segmentatsiya B2B va B2C xaridorlarni samarali jalb qilish imkonini beradi.	Interfeytsda juda ko'p mahsulot va mediareklama bo'lgani uchun sahifa tartibsiz ko'rinadi, bu esa foydalanuvchining diqqatini chalg'itadi.	o'rtacha – platformada mahsulotlar asosan oddiy rasmlar bilan ko'rsatiladi. Ichki mediareklama imkoniyatlari cheklangan, ko'proq tashqi (Google, Facebook) mediareklama orqali targ'ib qilinadi.	15 daqiqa	41%
<b>Fibre2 Fashion</b>	B2B savdo platforma	Xalqaro bozorlardagi kompaniyalar	Professional kontent-marketing, video, 3D, AR texnologiyalari mavjud.	Platformadagi kontent asosan yirik kompaniyalar uchun mo'ljallangan, shuning uchun kichik biznes uchun undan foydalanish biroz qiyin.	yuqori – ko'p formadagi multimedia integratsiya qilgan platforma. Banner, video, 3D / 360° media interaktivlik bilan qo'llanadi. Rasm sifati professional va marketing muhitiga mos ravishda yuqori darajada.	22 daqiqa	57%
<b>Global Textile Source</b>	B2B savdo platforma	Xalqaro bozorlardagi kompaniyalar	To'qimachilik sanoatining barcha bosqichlarini qamrab olgan. Platforma ko'rgazmalar bilan bog'langan bo'lib, bu orqali kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri boshqa bizneslar bilan tez va oson aloqa o'rnatishi mumkin.	platforma dizayni qulay bo'lsa-da, mahsulotlarni mediareklama qilishda vizual vositalar yetishmaydi: 3D yoki interaktiv tahlil kabi imkoniyatlar mavjud emas. Bu esa brendni emotsional jihatdan ta'sirli tarzda taqdim etish imkonini cheklaydi.	o'rtacha-mediareklama asosan video suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Mahsulotlarni 3D yoki 360 darajada ko'rish imkoniyati yo'q, lekin rasmlar sifatli.	18 daqiqa	82%

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

ISO sertifikatlari va ekologik standartlarga rioya qilinishini tekshiradi, bu esa xaridorlarga ishlab chiqaruvchilarning ishonchliligini kafolatlaydi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bunday ishonch tizimi savdoni uch barobar oshiradi. Ayniqsa, "Sustainable Cotton from Uzbekistan" bo'limi orqali O'zbekiston organik paxtasi odatdagi narxdan 20% qimmatroqqa sotilishi mumkin. Global Textile Source O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini global premium segmentga olib chiqishda eng maqbul platforma bo'lib, u yirik xaridorlar bazasiga, ishonch tizimlariga va milliy mahsulotlarning raqobatbardosh jihatlarini samarali ko'rsatish imkoniyatiga ega. Tadqiqotlarga ko'ra xalqaro "marketpleys"lardan foydalanish milliy marketpleys dasturini ishlab chiqish orqali mahsulotlarning eksport hajmini 25–30%ga, milliy brendlar tanilishi darajasini 40% va raqamli savdo platformalari orqali tashqi savdo aylanmasini 18% oshirish imkonini beradi.

Raqobatbardosh bozor sharoitida kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar marketing strategiyasida mediareklamaning samaradorligini oshirishni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqmoqda. Bu holat nafaqat mahsulot aylanish tezligiga, balki brend imiji, mijozlar sadoqati va xalqaro bozorlarga chiqish strategiyalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kiyim-kechak mahsulotlari o'z mohiyatiga ko'ra emotsional tanlovga asoslangan tovarlar turkumiga kirganligi bois, ularni targ'ib qilishda raqamli media vositalarining audiovizual salohiyati, estetik dizayn va kontent sifati asosiy omillar sirasiga kiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o'z tadqiqotimizda "Textile Finds" platformasidagi to'qimachilik korxonalarining raqamli marketing metrikasi orqali mediareklama xarajatlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qildik (4-jadval).

**4-jadval**

**Mediareklama xarajatlari va natija ko'rsatkichlari<sup>13</sup>**

Korxonona	CPC (\$)	CPC (\$) baholash	CPA (\$)	CPA (\$) baholash	CPL (\$)	CPL (\$) baholash	CPO (\$)	CPO (\$) baholash	CPV (\$)	CPV (\$) baholash
Orange Textile Profi	0,6	5	34	5	14	5	44	5	420	1
Fatihim Tekstil A.Ş.	0,55	5	32	5	13	5	42	5	450	1
Open Expo	0,7	4	36	4	16	4	47	4	330	3
NAZAR TEXTILE	0,75	4	38	4	17	4	48	4	350	3
Uztex	0,65	4	35	4	15	4	45	4	400	2
Textile Finds	0,8	3	40	3	18	3	50	3	320	3
Textile Pro Group	0,9	3	42	3	20	3	52	3	300	3
Life Teks	0,85	3	41	3	19	3	51	3	310	3
Yulbars tex	0,95	2	44	3	21	3	54	3	290	4
ModernQuill	0,78	3	39	3	18	3	49	3	360	3
Yustex	1,1	2	48	2	22	2	55	2	280	4
Nil-Granit	1,3	1	55	1	25	2	60	2	250	5
Baoyu	1,2	1	50	2	23	2	58	2	270	4
OOO Proftextile	1,4	1	60	1	28	1	65	1	230	5

Korxonalarining ushbu xarajatlardan kelib chiqib ularning mediareklama samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha normallashtirilgan intervallar asosida

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi

baholash, raqamli reklama samaradorligini ob'ektiv va strategik jihatdan aniqlashga xarakat qildik. Har bir indikator o'z mantig'i asosida baholangan bo'lib, bu yondashuv tahlil natijalarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval

**Mediareklama samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni baholash natijalari (%)<sup>14</sup>**

Korxonona	Ko'rsatkichlar chastotasi	Ko'rsatkichlar chastotasi baholash	CTR (%)	CTR (%) baholash	CR (%)	CR (%) baholash	Rad etishlar ko'rsatkichi (%)	Rad etishlar ko'rsatkichi (%) baholash	VTR (%)	VTR (%) baholash	ROAS (%)	ROAS (%) baholash	ROMI (%)	ROMI (%) baholash	CRR (%)	CRR (%) baholash	Yakuniy baholash
Orange Textile Profi	4,1	4	2	5	2,9	5	48	5	72	5	520	5	160	5	34	5	5
Fatihim Tekstil A.Ş.	4,5	5	2,2	5	3,2	5	45	5	75	5	550	5	170	5	36	5	5
Open Expo	4,5	5	2,1	5	2,8	5	50	5	70	5	500	5	150	5	32	4	5
NAZAR TEXTILE	4	4	1,8	4	2,5	4	53	4	68	4	450	4	140	4	30	4	4
Uztex	3,5	3	1,7	4	2,4	4	52	4	69	4	430	4	145	4	31	4	4
Textile Finds	3,8	3	1,7	4	2,3	3	58	3	65	4	400	3	130	4	28	3	3
Textile Pro Group	4,2	4	1,9	4	2,6	4	55	3	67	4	420	3	135	4	29	3	4
Life Tekst	3,7	3	1,6	3	2,2	3	57	3	63	3	390	3	125	3	27	3	3
Yulbars tex	3,5	2	1,5	3	2	3	60	3	60	3	380	3	110	3	25	2	3
ModernQuill	3,4	2	1,4	3	1,8	2	63	2	58	2	350	2	100	2	23	2	2
Yustex	3,2	2	1,2	2	1,5	2	65	2	55	2	320	2	90	2	20	2	2
Nil-Granit	3,	1	1	2	1,3	1	68	1	52	1	280	1	85	1	19	1	1
Baoyu	2,9	1	0,9	1	1,1	1	70	1	50	1	250	1	75	1	18	1	1
OOO Proftextile	2,8	1	0,8	1	0,9	1	72	1	47	1	220	1	70	1	15	1	1

